valiy–ish boshqaruvchi, mushtariy–xaridor, muxosib–hisobchi, hisobdor, nafaqa–maosh, xarajat, naf-foyda, baxra, niyoz–ehtiyoj, oviza–boylik, sayrafiy–sarrof, tamavvul–moldorlik, tojir–savdogar, tijoratchi, ugul–yig‘im, unquch–qarz, ushr–soliq turi, xanj–foyda, naf, xiroj–soliq turi, chorasoz-Tadbirkor, sha-foatgar–vositachi, xizonasanj–xazina o‘lchovi, xiyla–zeb-ziynat.

Yuqorida ko‘rsatilgan leksik birliklarni tahlilga tortadigan bo‘lsak, Temuriylar davrida “Arzdosht” (arz-dosht) sifatida ishlatilgan so‘z hozirgi kunga kelib, “Ariza yozish” ko‘rinishida foydalanilmoqda. Bun-day so‘zlarni bir qatorini misol keltirish mumkin, “Irs” so‘zi hozirda “Meros” holatida (ya’ni “m” harfi qo‘-shilib, epenteza, harf orttirilish hodisasi kuzatilmoqda, “i” harfi “e” harfiga o‘zgarmoqda va turkiy tillarga xos xususiyat ikki yonma-yon kelgan undosh harflar “r”, “s” harflari orasiga “o” unli harfi qo‘shilib kel-moqda); “Varasa” so‘zi “vorislik” holatida hozirda foydalaniladi va fonetik o‘zgarish jarayoniga uchragan so‘zlar qatoriga kiritsak bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

Xulosa. Tadqiqotimiz davomida bizgacha yetib kelgan tarixiy manbaalarni o‘rganish natijasida, ja-miyatda muhim o‘rin egallagan pul, hisob-kitob asosida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar bir necha asrlar avval paydo bo‘lib, yillar davomida rivojlanib kelayotganligini ko‘ramiz. Iqtisodning tarkibiy qismi bo‘lgan moliya-budjet, g‘azna, soliq, boj sohalarida to‘g‘ri siyosatni amalga oshirish jamiyat taraq-qiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Boshqa tillarda bo‘lgani kabi, o‘zbek tilida ham iqtisodiy-moliyaviy terminlarining tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishi o‘z tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Har bir terminologik tizimning shakllanishi, rivojlanishi va shu sohaning tarkib topib, taraqqiy eta borishi bilan uzviy bog‘liqdir. Albatta, sohaviy jihatdan o‘ziga xoslik kasb etadi. Shu ma’noda, o‘zbek, ingliz va koreys tili iqtisodiy-moliyaviy soha terminologiyasining tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishi o‘z taraqqiyot yo‘li, genetik asoslariga ega va ushbu davriy ketma-ketlikni turli tillar, davrlar ko‘lamida o‘z maqolalarimizda atroflicha o‘rganib, turli xil misollar orqali tasniflab chiqmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). I.T.Xaydarov. Ingliz va o‘zbek tillarida sug‘urta leksikasining chog‘ishtirma tadqiqi. Filol. fan. d-ri (PhD) diss., 2023, 20-bet.

(2). Солнцев В.М. Курс общий лингивистики. Москва, 1977, с. 19.

(3) Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию. Москва, “Прогресс”, 1977, с. 123.

(4). Туленов Ж., Ғафуров З. Фалсафа. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1997, 238-бет.

(5). Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Тата-ринов В.А. История отечественного терминоведения. Т. I. Классики терминоведения. Очерк и хрестоматия. М., Московский лицей, 1994, с. 218 – 284.

(6). Будагов Р.А. Человек и его язык. М., МГУ, 1976, с. 176.

Jumatov Rashid Yangibayevich (Urganch davlat universiteti “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori; e-mail: rashidjumatov 08@gmail.com)

INGLIZ TILIDA TOPONIMLAR IFODALAGAN LOKATIV SINTAKSEMA VARIANTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gap tarkibini sintaksemalarga ajratib tadqiq qilish, kategorial diffe-rensial sintaktik-semantik belgilarini aniqlash, so‘ngra ular qamrovida nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilari va o‘ziga xos xuxusyatlari muhokama qilinadi. Keyingi navbatda esa ingliz va o‘zbek tillari tizimida aniqlangan sintaksemalar qiyoslanadi va funksional tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *sintaksema, sintaksem tadqiq, toponim, funksional-semantik xususiyat, kategoriya, lo-kativlik.*

Джуматов Рашид Янгибаевич (и.о, доцента Ургенчского государственного университета, доктор философских наук по филологическим наукам; e-mail: rashidjumatov 08@gmail.com)

ВАРИАНТЫ ЛОКАТЕЛЬНОЙ СИНТАКСЕМЫ, ВЫРАЖЕННЫЕ ТОПОНИМАМИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье рассматривается структура предложения путем его деления на синтаксемы, выявляются категориальные дифференциальные синтаксико-семантические призна-ки, а затем обсуждаются некатегориальные дифференциальные синтаксико-семантические признаки и их специфические характеристики в рамках их сферы действия. Далее сравниваются и функционально анализируются синтаксисы, выявленные в системах английского и узбекского язы-ков.*

Ключевые слова: *синтаксема, синтаксемоведение, топоним, функционально-семантическое свойство, категория, локативность.*

Jumatov Rashid Yangibaevich (Acting Associate Professor of Urgench State University, Doctor of Philosophy in Philological Sciences; e-mail: rashidjumatov 08@gmail.com)

VARIANTS OF LOCALITY SYNTAXEMES EXPRESSED BY TOPONYMS IN THE ENGLISH LANGUAGE

Annotation. *This article examines the structure of a sentence by dividing it into syntaxemes, identifies categorical differential syntactic-semantic features, and then discusses non-categorical differential syntactic-semantic features and their specific characteristics within their scope. Further, the syntaxes identified in the English and Uzbek language systems are compared and functionally analyzed.*

Keywords: *Syntaxemes, syntax studies, toponym, functional-semantic property, category, locativity.*

Introduction (Kirish). Qiyosiy tilshunoslik nuqtai nazaridan toponimlarni turli tizimli tillar, xususan, ingliz va o'zbek tillari gap qurilmasida sintaksemalarga ajratib tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Toponimlar bo'yicha har ikkala tilda ham qator tadqiqotlar olib borilgan, biroq mavzuga sintaksem tadqiq nuqtai nazaridan yondashilmagan. Gap tarkibini sintaksemalarga ajratib tadqiq qilish jarayonida, birinchi navbatda, kategorial differensial sintaktik-semantik belgilar aniqlanib, so'ngra ular qamrovida nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilar ochib beriladi. Keyingi navbatda esa ingliz va o'zbek tillari tizimida aniqlangan sintaksemalar qiyoslanadi va funksional tahlil qilinadi.

Har qanday tildagi toponimlar obyektning biror joyda joylashuviga ishora qiladi. Bir qator tilshunoslar buni "lokativ [4;9-b.], ikkinchi bir guruh tilshunoslar orientirli [5;1;11-b.], yana bir guruhi situativ [9] deb nomlasa, qolganlari esa shunchaki obyektning joylashuvini ko'rsatuvchi nomlar", deb tasniflaydi.

Literature Review (Adabiyotlar tahlili). Toponimlar makon ifodasiga ko'ra, bir necha guruhlarga bo'lib o'rganiladi. L.N.Fedoseyeva toponimlarning funksional-semantik maydoniga asoslanib, "событийная, ландшафтная, динамическая, параметрическая" [5;49–53-b.] tematik guruhlarini farqlagan va ularning leksik-semantik xususiyatlarini ochib bergan. Biroq olima toponimlarning sintaktik-semantik jihatlariga e'tibor qaratmagan.

Funksional sintaksis nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, toponimlar gap tarkibida, ko'pincha, o'rin holi vazifasida keladi. Tilshunoslikda hol gapning ikkinchi darajali bo'lagi bo'lib, bir necha turlarga ajratiladi. Masalan, tilshunos olim H.Sweet holning quyidagi turlarini farqlaydi: adverbial modifier of place, adverbial modifier of time, adverbial modifier of reason, adverbial modifier of consequence, adverbial modifier of way of action [15;187-b.]. Holning ushbu turlaridan o'rin holi lokativlik semasini o'zida aks ettiradi.

Lokativlik kategoriyasi bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, O.Y.Ivanova (2004) lokativlikning so'z yasalish xususiyatlarni o'rgangan bo'lsa, A.A.Abdullina (1994) va F.I.Pankovlar (2010) funksional-semantik maydonini tadqiq etgan. N.J.Sulaymanova esa lokativlik kategoriyasini ifodalovchi lisoniy unsurlarni ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy tadqiq etish jarayonida lokativ sintaktik birliklarning differensial sintaktik-semantik belgilarini aniqlagan, gaplar tahlili vositasida lokativ semalarning turlarini tasniflagan:

1. I live *in Moscow* – lokativ adessiv.
2. I go *to Moscow* – lokativ allativ.
3. I came *from Moscow* – ablativ.
4. I came *to Moscow from London* – lokativ translativ.
5. I went along the streets *of Moscow* – sof lokativlik" [14;74–77-b.].

R.W.Zandvoort lokativ munosabatlarining subyekt, harakat, hodisa, belgi va boshqa xususiyatlarini aniqlaydi [3;221-b.]. M.Y.Maskin kvalifikativ sintaksemalar bo'yicha tadqiqot olib borgan va kvalifikativ sintaksemaning lokativlikka o'tish xususiyatlariga qisqacha to'xtalgan [3;132–140-b.].

Yuqoridagi tadqiqotlarda lokativlik tilning turli sathlarida umumiy o'rganilgan. Biz ushbu tadqiqotimizda aynan toponimlar ifodalagan lokativ sintaksemalarning gap tarkibidagi differensial sintaktik-semantik xususiyatlarini, kategorial va nokategorial belgilarini ochib beramiz hamda ularning boshqa sintaksemalar bilan bog'lanish imkoniyatlarini aniqlaymiz.

Discussion (Muhokama). Lokativlik kategoriyasi haqida amalga oshirilgan tadqiqotlarda lokativ adessiv, lokativ ablativ, lokativ allativ, lokativ translativ, lokativ start, loaktiv finish kabi sintaktik-semantik belgilar mavjudligi ta'kidlangan. "В пределах же локативного ряда были выделены четыре субряда, каждый из которых включает в себя синтаксемы, обладающие также двумя общими для них синсемантическими признаками. Это – локативный терминативный субряд, локативный инцентивный, локативный интериорный и локативный экстериорный субряды" [7;109–110, 112-b.].

Ingliz tilidagi badiiy matnlardan to‘plangan misollarni sintaksem tahlil qilish orqali toponimlar ifodalagan lokativ sintaksemalarni aniqlaymiz.

1.. Lately, long-lost travelers have been found in the mountains. [12]

2. ... radiant rivers of molten rock were snaking through Meradalir valley. [12]

Berilgan gaplar tarkibida *in the mountains (2)* sof lokativ sintaksemani ifodalab, subordinativ aloqa asosida *people (1), long-lost travelers (2)* obyekt sintaksemalarga subordinativ aloqa asosida bog‘langan. Gaplarning yadro predikatlovchi komponentlari *have been found (1)* protsessual deriktiv sintaksemalarni ifodalagan, biroq gaplar tarkibida agentiv sintaksema, ya’ni harakatning bajaruvchisi aks ettirilmagan. Keyingi gaplarda yadro predikatlovchi komponentlar *were snaking (3), moved (4)* protsessual aksional sintaksemalarni ifodalagan va yadro predikativ aloqa asosida substansial agentiv *radiant rivers of molten rock (3),* sintaksemalari bilan bog‘langan. Toponimlar bilan ifodalangan *through Meradalir valley (3)* – substansial instrumental lokativ translativ, *to Faizabad (4)* – substansial lokativ allativ sintaksemalar subordinativ aloqa asosida protsessual aksional sintaksemalarga bog‘langan.

Results (Natijalar).Gaplarning sintaksem modeli quyidagicha:

1) Lately, long-lost travelers have been found in the mountains – QlfTm.QlfQlt.SbOb .PrDr. SbLc;

2) ... radiant rivers of molten rock were snaking through Meradalir valley – QlfQlt .SbAg.SbQlt. PrAc.SbInsLcTrs.

Keyingi gaplarda makon va hudud nomini anglatuvchi toponimlar ifodalagan sintaksemalarni aniqlaymiz.

3. The country has made monumental progress during that period: ... creating a space program that launched an orbiter to Mars. [12]

4. Video taken at Australia’s Ningaloo Reef shows that... . [12]

5. ... he saw the chamois’ horns ... up on Gepatschferner. [12]

Tushirib qoldirish transformatsiyasi yordamida gaplar tarkibidagi asosiy mazmunni saqlagan holda tobe komponentlarni tushiramiz va hosila gapni sintaksem tahlil qilamiz;

3) The country has made monumental progress during that period: ... creating a space program that launched an orbiter to Mars → The country launched an orbiter to Mars;

4) Video taken at Australia’s Ningaloo Reef shows that ... → That video was taken at Australia’s Ningaloo Reef.

Toponimlar bilan ifodalangan sintaktik birliklar *to Mars (7)* – substansial lokativ allativ, *at Australia’s Ningaloo Reef (8)* – substansial lokativ, *up on Gepatschferner (9)* – substansial lokativ adessiv sintaksemalarni anglatadi va *an orbiter (7), video (8), horns (9)* – obyekt sintaksemalar bilan subordinativ aloqa asosida bog‘lanadi. Gap elementlarining differensial sintaktik-semantik belgilarini quyidagi sintaksem modelda ifodalaymiz:

3) The country launched an orbiter to Mars – SbAg . PrAc . SbOb . SbLcAll;

4) That video was taken at Australia’s Ningaloo Reef – QlfDm . SbOb . SbPsLc;

5) ... he saw the chamois’ horns ... up on Gepatschferner – SbAg . PrAc . SbPs . SbOb . SbLcAd.

Ingliz tilida cherkov bilan bog‘liq toponimlar ko‘plab uchraydi, garchi bunday nom bilan atalgan joy diniy obyekt bo‘lmasa ham.

6. He was at the Cambridge University [13;108-b.].

7. They were together at Hilton Hotel ... [11;6-b.].

8. She isn’t too far from Berkley [13;135-b.].

Berilgan 10-11-12-gaplarning barchasida *at the Bell Training School, at Bellhaven Guest House, far from Church Hill* toponimlar substansial lokativ identifikatsiyalovchi sintaksemalarni ifodalagan va identifikatsiyalanuvchi sintaksemalar bilan yadro predikativ aloqa asosida bog‘langan. Shuningdek, o‘n ikkinchi gapda daraja-miqdor (DgMs) bildiruvchi sintaksema ham mavjud. Gaplarning sintaksem modeli quyidagicha:

6) He was at the Cambridge University – SbEx.PrEx.SbLcAd;

7) They were together at Hilton Hotel – SbEx.PrEx.SbLcAd;

8) She isn’t too far from Berkley – SbEx.PrExNg.QlfDgMs.SbLcAbl.

Angliya va Amerika joy nomlari orasida kishilarning nomlari bilan atalgan toponimlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

9. On entering he turned left and went down five steps to what a sign announced was Mike’s Grocery Store [12;80-b.];

10. The pearl is to be placed aboard Pan American World Airways Flight five six nine, leaving New York Airport [13;109-b.].

11. There were so many pirate ships off the shores of Maryland, Virginia [13;164-b.].

12. You grabbed the checkered flag at the Winston in Charlotte [13;388-b.].

Berilgan 9–10-gaplarni tushirib qoldirish transformatsiyasiga solib mazmunga ta'sir qilmagan holda tobe komponentlarni tushirib, asosiy elementlarni saqlab qolamiz:

9. On the entering he turned left and went down five steps to what a sign announced was Mike's Grocery Store → He went down to Mike's Grocery Store.

10. The pearl is to be placed aboard Pan American World Airways Flight five seven nine, leaving New York Airport → Pan American World Airways Flight five seven nine, leaves New York Airport.

Hosila gaplar tarkibida *went down (9)* – protsessual aksional va *leaves (10)* – protsessual aksional iterativ sintaksemalar substansial agentiv – *He (9), Pan American World Airways Flight five seven nine (10)* – sintaksemalar bilan yadro predikativ aloqa asosida bog'langan. Toponimlar bilan ifodalangan komponentlar *Mike's Grocery Store (9)* – substansial lokativ interior, *New York Airport (10)* – substansial lokativ obyekt sintaksemalarni anglatadi va subordinativ aloqa bazasida yadro prediktlovchi komponentlarga bog'lanadi.

O'n birinchi gapda toponimlar *of Maryland* – lokativ posessiv, *Virginia* – lokativ eksplikativ sintaksemalarni ifodalagan va *of Maryland* komponenti *off the shores* – substansial lokativ ablativ adessiv sintaksema bilan eksplitsit tarzda subordinativ aloqaga kirishgan. O'n ikkinchi gapda *at the Winston* – lokativ adessiv kontinuativ, *in Charlotte* lokativ adessiv sintaksemalarni ifodalagan va *the checkered flag* – substansial obyekt sintaksema bilan tobe bog'langan.

Gaplarning sintaksem modeli quyidagicha:

9) He went down to Mike's Grocery Store – SbAg.PrAc.SbLcIntr;

10) Pan American World Airways Flight five seven nine leaves New York Airport – SbAg.PrAcItr. SbOb;

11) There were so many pirate ships off the shores of Maryland, Virginia – PrExs.QlfDg.QlfQun. SbQlt.SbExs.SbLcAblAd.SbLcPs.SbLcExp;

12) You grabbed the checkered flag at the Winston in Charlotte – SbAg.PrAc.PrQlt.SbOb. SbLcAdCnt.SbLcAd.

Ko'cha nomlari, keng hudud nomlari bilan, ko'pincha, *across, along* predloglari ishlatilib, harakatning muayyan hudud bo'ylab amalga oshishini anglatadi.

13. The bus was just arriving at High Street [11;7-b.].

14. He was driving west on Bond Street [13;135-b.].

15. Wildfires ... have destroyed more than 80,000 hectares of forest across Spain [190].

16. She walked ... along Hill Street [13;132-b.].

Berilgan gaplarda toponimlar *at High Street (13)* – lokativ interior, *on Bond Street (14), across Spain (15), along Hill Street (16)* – substansial lokativ total sintaksemani ifodalaydi va *was driving (14,), walked (16)* – protsessual aksional, *forest (15),* – substansial obyekt sintaksemalar bilan subordinativ aloqa asosida bog'lanadi.

Gaplarning sintaksem tahlili quyidagicha izohlanadi:

13. The bus was just arriving at High Street – SbAg.QlfTmp.PrAc.SbLcIntr;

14. He was driving west on Bond Street – SbAg.PrAc.SbLc.SbLcTl;

15. Wildfires ... have destroyed more than 80,000 hectares of forest across Spain – SbAg.PrSt. QlfQunPrt.SbObPs.SbLcTl;

Keyingi misollarda tartib songa asoslangan toponim, fitonim qatnashgan va lokativ obyekt, lokativ eksterior sintaksemalarni ifodalagan:

16. They had walked 62nd Street [12;103-b.].

17. Outside London station a group of people stood in complete uncertainty [11;1-b.].

Lokativ sintaksema *62nd Street* protsessual aksional – *had crossed* sintaksemaga nisbatan obyekt bo'lib kelganligi uchun substansial lokativ obyekt nokategorial belgiga ega hisoblanadi. Yigirma to'rtinchi gapda *Outside London station* toponimik birikmasi *people* – substansial stativlik yuklatilgan agentiv va *stood* – protsessual aksional sintaksemalarga bog'lanib, lokativ eksterior sintaksemani anglatadi. Ushbu 17-gapda *people* komponentiga stativlik yadro predikatlovchi komponent tomonidan emas, balki noyadroviy tobe komponent – *in complete uncertainty* tomonidan yuklatilgan. Buni transformatsiya metodi yordamida aniqlashimiz mumkin:

17) Outside London station a group of people stood in complete uncertainty → people were uncertain / people stood uncertain.

Transformatsiya hosilasidan *in momentary uncertainty* komponenti kvalifikativ stativ sintaksemani ifodalashi ayon bo‘ladi. Gaplarning sintaksem modeli quyidagicha:

16) They had walked 62nd Street – SbAg.PrAc.SbLcOb;

17) Outside London station a group of people stood in complete uncertainty – SbLcExtr.QlfM .SbCl .SbStAgPs.PrAc.QlfSt.

Conclusion (Xulosa). Demak, ingliz tilida toponimlar lokativ sintaksema va uning subvariantalrini ifodalaganda, asosan, o‘rin holi vazifasida ishtirok etadi va lokativ adessiv, lokativ ablativ, lokativ allativ, lokativ translativ, lokativ start, loaktiv finish, lokativ interior, eksterior, terminativ, lokativ adessiv kontinuativ kabi sintaktik-semantik belgilarni o‘zida mujassamlashtirgan holda aksional, obyekt, identifikatsiyalovchi, kvalitativ, stativ, modal sintaksemalar bilan sintaktik aloqaga kirishishi dalillandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (Reference):

(1). Гребнева А. М. Ориентированные микротопонимы. Ономастика Поволжья. Саранск, 1986, с. 41.

(2). Дмитриева Т.Н. Топонимия бассейна реки Казым: Автореф. дис.…д-ра филол. наук. Ижевск, 2006, 16 с.

(3). Маскин М.Ю. Квалификативные синтаксемы в конструкциях существительное+существительное» в современном английском языке Лингвистические исследования. Москва, 1986, с. 132–140.

(4). Мамонтова Н.Н. Структурно-семантические типы микротопонимии ливиковского ареала Карельской АССР (Олонецкий район). Петрозаводск, 1982, 42 с.

(5). Мащенко И.В. Из наблюдений над словообразовательной структурой ориентированных топонимов в русском языке. Вопросы ономастики. Свердловск, 1979, с. 88–92.

(6). Муллонен И.И. Очерки вепсской топонимики. СПб., “Наука”, 1994, с. 155.

(7). Мухин А.М. Функциональный синтаксис. СПб., 1999, 184 с.

(8). Переяслав-Кривощекова-Гантман А.С. Микротопонимия Коми-Пермяцкого автономного округа. /Ономастика Поволжья. Межвузовский сб. науч. Трудов, Саранск, 1986, с. 56–63.

(9). Самарова М.А. Наименования топообъектов Верхней Чепцы. Монография, Ижевск, Удмуртский университет, 2010, 305 с.

(10). Федосеева, Л.Н. Функционально-семантическое поле локативности в современном русском языке. Система языковых и контекстуальных значений. Вестник Сургутского государственного педагогического университета, 2011, № 2, с. 49–53.

(11). Agatha Christie. And then there were none. New York, The Berkley publishing group, 1991, 204 p.

(12). Dean Koontz. *Icebound*. New York, First Ballantine Books edition, 1995, 408 p.

(13). Patricia Cornwell. Isle of Dogs. New York, The Berkley publishing group, 2001, 413 p.

(14). Sulaymanova N.J. Ways of expression of locativeness in the modern English language. Актуальные научные исследования в современном мире. XVII Международная научная конференция. 26–27 сентября 2016 г. ВЫПУСК 9(17), часть 3.

(15). Sweet H.A New English Grammar, Logical and Historical. Part I. Oxford: Clarendon press, 2004, 520 p.

(16). Zandvoort R.W. A Handbook of English Grammar. Groningen, 1998, 436 p.

Xujaqulov Ravshan Isroilovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti o‘qituvchisi)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA XALQ TABOBATIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING DERIVATSION TADQIQI

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarida xalq tabobatiga oid leksik birliklarning derivatsion tahliliga bag‘ishlangan. Xalq tabobati atamalari o‘z milliy madaniyat va tibbiyot tarixidan kelib chiqqan bo‘lib, ushbu leksik birliklarning morfologik va semantik jihatlari o‘rganiladi. Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida xalq tabobati atamalarining shakllanishi va rivojlanishi, ularning o‘zlashuv jarayonlari, shuningdek, har ikkala tilning morfologik va semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *xalq tabobati, leksik birliklar, derivatsion tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili, tibbiy terminologiya, morfologik tahlil, o‘zlashmalar, semantik tahlil, xalq amaliyoti.*

Худжакулов Равшан Исроилович (преподаватель Самаркандского государственного института иностранных языков)

ИЗУЧЕНИЕ ПРОИЗВОДНЫХ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, СВЯЗАННЫХ С НАРОДНОЙ МЕДИЦИНОЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *Данная статья посвящена деривационному анализу лексических единиц, связанных с народной медициной, в английском и узбекском языках. Термины народной медицины берут*